

**VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING SABAB VA SHAROITLARINI
BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI**

N.T.Usmonova

*Jizzax viloyati Zarbdor tumani IIB JXX HPB VYMB
inspektor-psixologi leytenant*

S.V.Qo`chqorova

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB JXX HPB VYMB
inspektor-psixologi leytenant*

Respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va profilaktik choralarni amalga oshirish hamda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid qator maqsadli chora-tadbirlar: voyaga yetmaganlar va yoshlar o`rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish, ularning huquqlarini himoya qilishga oid keng ko`lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor yo`nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug`lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" bo`yicha Taraqqiyot strategiyasidagi vazifalarni bajarish maqsadida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o`rganish va uning oldini olishning tadqiq etilishi kerakligi ushbu mavzuni o`rganish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sezilarli darajada kamaymasdan qolmoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sodir etilishiga olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni o`rganmasdan turib jinoyatchilik muammosini atroflicha tahlil qilib bo`lmaydi. Chunki ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlar davlat va jamiyat hayotida o`rin tutib kelayotgan mavjud muammolar bilan bevosita aloqador bo`ladi. Jinoyatchilikning sharoit va sabablari tushunchalari aniq tushunchalar hisoblanadi. "Sharoit" va "sabab" tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog`lanib ketganligi sababli ularning mazmunini yetarli darajada aniqlamasdan turib, ajratish qiyin bo`ladi. Xususan, jinoyatchilikning sabablari, jamiyatda jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida muayyan jinoyatni sodir etilishi uchun sharoit yaratuvchi ijtimoiy hodisalar va jarayonlar yig`indisidir. Masalan, voyaga yetmaganlar bezoriligining sababi ichkilikbozlik va nazoratsizlik deb hisoblansada, yuzaki qaraganda o`smirning alohida bir jinoyat sodir etishining sababi bo`lishi mumkin, lekin ular jinoyatning sababi bo`la olmaydi, balki sharoit yaratadi, xolos.

Jinoyatchilikni sharoiti deb, o'z-o'zidan jinoyat va jinoyatchilikni keltirib chiqarmaydigan, ammo jinoyat sodir bo'lish sababini tug'diruvchi g'ayriijtimoiy hodisaga aytiladi. Masalan, mulkni qo'riqlashdagi, ularni hisobga olish, maqsadga muvofiq foydalanishdagi kamchiliklar talon-taroj qilish soxasidagi jinoyatchilikning sodir bo'lishiga sharoit yaratsa, transport harakati xavfsizligini ta'minlashdagi kamchiliklar: yo'llarning yaroqsizligi, yo'lning transport harakatlanadigan qismiga turli narsalarni to'kib quyganlik, xatto yo'l belgilarining noto'g'ri joylarga quyilganligi ham transport halokatlarining sodir bo'lishiga sharoit yaratishi mumkin.

Olimlarning va ko'pchilik kuzatuvchilarning fikriga ko'ra, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi sabablarini quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy muammolar tufayli
2. Oilaviy nizolar tufayli
3. Psixologik buzilishlar ta'sirida.

Hozirgi davrda tarbiyasida, turmushida muammolar shakllangan insonlar uchun psixologik xizmat ko'rsatishning beshta yo'nalishi amaliyotda keng joriy etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik ma'rifat;
2. Psixodiagnostika;
3. Psixoprofilaktika;
4. Psixokorreksiya va psixologik rivojlantirish;
5. Psixologik maslahat.

Psixologik xizmat ko'rsatishning mazkur yo'nalishlari psixoterapevtik harakterga ega bo'lib, insonlar hayoti, turmush tarzi va mehnat faoliyatiga dahldor muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi zamonaviy psixologiya amaliyotida yoshlar psixologiyasi, xulq-atvori va dunyoqarashida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni korreksiya qilishda psixoanaliz, kognitiv terapiya, xulq-atvor (individual) terapiyasi, geshtalt terapiya va boshqa terapevtik usullardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O'zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o'rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko'lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, O'zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo'lmaydi. O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bo'lgan ayrim ob'ektiv va

sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo`qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo`li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, voyaga yetmagan, qarovsiz va ota-ona nazoratisiz qolib ketgan o`smir yoshdagilarda sodir bo`layotgan o`zgarishlarni bartaraf etish va xulqidagi salbiy og`ishlarni korreksiyalashda psixologik bilimlarning o`rni va ahamiyati nihoyatda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida"gi Farmoni, 2017 yil 6 iyul.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida"gi farmoni// <http://old.lex.uz/docs/5841063>

3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko`rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son.